

REALIYA – MILLIY MADANIYAT SADOSI SIFATIDA

¹Begimkulova Shaxnoza Axmedovna

¹IPU, Xorijiy tillar kafedrası katta o'qituvchisi

¹E-mail:cool.begimkulova@inbox.ru

¹[Tel:+998979091016](tel:+998979091016)

Annotatsiya. Adabiyotda "realiya" so'zi aslida ittifoqiy, amaliy, yoki mavjud holat yoki muhitni ifodalovchi bir tilda izohlanadi. Bu so'z o'ziga xos ma'nolarda ishlatilishi mumkin bo'lsada, adabiyotda "realiya" bilim, san'at va jamiyatga oid obyektiv va mahaliy xalq, joylar, va hodisalarning umumiy darajasini ifodalovchi bir so'z bo'lib keladi. Adabiyotda "realiya" tushunchasi turli janrlar, uslublar va mualliflarning tafakkuriga qarab turli ko'rinishlarda ifodalangan bo'lishi mumkin. Bu so'z san'at asarlari, romanlar, she'rlar va boshqa badiiy asarlarda uchraydi. Odatda, badiiy adabiyotdagi realiya umumiy hayotda voqea, insonlarning o'zaro munosabatlari, tabiiy muhit, ijtimoiy-siyosiy hodisalar va boshqa voqea-hodisalar orqali tasvirlangan jamiyatning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Bu tushuncha, yozuvchiga o'quvchi uchun adabiyotda o'z asari orqali yangi dunyoni tushuntirish, tahlil qilish va tasavvur qilish uchun asosiy vositadir.

Kalit so'zlar: realiya, obyektiv, san'at, milliy madaniyat, til

РЕАЛИЯ КАК ГОЛОС НАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ

¹Бегимкулова Шахноза Ахмедовна

¹Университет педагогики и экономики, старший преподаватель кафедры

Иностранных языков

¹E-mail:cool.begimkulova@inbox.ru

¹[Tel:+998979091016](tel:+998979091016)

Аннотация. В литературе слово «реалия» фактически интерпретируется на языке, который представляет собой единую, практическую или существующую ситуацию или среду. Хотя это слово может использоваться в определенных значениях, в литературе «реалия» — это слово, которое относится к общему уровню объективных и местных людей, мест и событий, связанных со знаниями, искусством и обществом. В литературе понятие «реальность» может

выражаться в разных формах в зависимости от разных жанров, стилей и мышления авторов. Это слово встречается в произведениях искусства, романах, стихах и других произведениях искусства. Обычно реалия в художественной литературе представляет собой специфические черты общества, изображенные через события, человеческие взаимодействия, природную среду, социально-политические события и другие события общей жизни. Эта концепция является для писателя основным инструментом объяснения, анализа и представления нового мира для читателя посредством его работы в литературе.

Ключивые слова. Реалия, искусство, объектив, национальная культура, язык

REALIA AS THE VOICE OF NATIONAL CULTURE

¹Begimkulova Shakhnoza Akhmedovna

¹University of Pedagogy and Economics, senior teacher at the Department of Foreign Languages

¹E-mail:cool.begimkulova@inbox.ru

¹[Tel:+998979091016](tel:+998979091016)

Annotation.In literature, the word "realia" is actually interpreted in language that represents a single, practical or existing situation or environment. Although the word can be used in certain senses, in literature "realia" is a word that refers to the general level of objective and local people, places and events associated with knowledge, art and society. In literature, the concept of "realia" can be expressed in different forms depending on the different genres, styles and thinking of the authors. This word appears in works of art, novels, poems and other works of art. Typically, realia in fiction represent specific features of society, depicted through events, human interactions, the natural environment, socio-political events and other events of general life. This concept is the writer's main tool to explain, analyze and present a new world to the reader through his work in literature.

Key words. Realia, art, objective, national culture, language

KIRISH

“Realiya” so‘zi arab tilidan olingan va “real” (haqiqiy, asl) kelishuvidan kelib chiqqan ma’noni ifodalaydi. “Realiya” adabiyot, madaniyat, fanlar sohasida haqiqiy ob’ektni yoki materiallarni ifodalash uchun ishlatiladi. Adabiyotshunoslar va tarjimonlar shuni ta’kidlaydilar, adabiy asarning milliy koloritini o’sha xalqning o’zigagina taaluqli bo’lgan realiyalar bilan ifodalash mumkinligini. Asar o’z mavzusiga ko’ra xalqqa qanchalik yaqin bo’lsa asarda ham realiyalarni uchratish mumkin. Realija adiblar uchun obrazlarni haqiqiy, shaxsiyatli va ishinarli ko’rsatish maqsadida foydalanadilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI

E.M. Vereshagin va V.G. Kostomarov rus adabiyotining materialiga asoslanib yettita milliy madaniyat semantikasini anglatuvchi guruhni klassifikasiya qildilar [1,]:

1. Sovetizm. Oktyabr revolyusiyasidan so‘ng paydo bo‘lgan so‘zlar
(Верховный совет, депутат)
2. Yangi maishiy so‘zlar (madaniyat bog‘i, zachyotka, shanbalik)
3. An’anaviy hayot obektlari va hodisalarining nomlari (bublik, shi, valenki)
4. Tarixiylik. Tarixiy davrga doir so‘zlar (uezd, kaftan)
5. fraziologik birlikning leksikasi (kirish va chiqishlarni o’rganish)
6. Folklorga doir so‘zlar (soat emas millar sain, domovoy)
7. Kelib chiqishi rus tilidan bo‘lmagan, ya’ni, turkcha, mongolcha, ukraincha
(taiga, bozor, xalat, osh, maiz)

Yuqorida keltirilgan guruhlar realiyaga- ma’lumotga ega leksika sifatida qarashga undaydi.

V.S. Vinogradov esa lotin amerikasi materialida realiyaga quidagicha guruhlaydi [2, 104].

1. Maishiy realiya
 - a) uy ,mulk
 - b) kiyim-kechak
 - c) oziq-ovqat, ichimlik
 - d) mashg’ulotlar
 - e) pul birliklari, o‘lchov birlikari

- f) musiqa asboblari, xalq raqsi va qushiqlari, xonandalar
- g) xalq o'yinlari va bayramlari
- h) muloqot

2. Etnografik va mifologik realiya

- a) etnik va ijtimoiy jamoalar hamda ularning vakillari
- b) xudo, ertaknamo maxluqlar, mashxur joylar

3. Tabiat olamiga tegishli realiya

- a) hayvonlar
- b) o'simliklar
- c) landshaft, peyzaj

4. Davlat-ma'muriy va ijtimoiy hayotga tegishli realiya

- a) ma'muriy birliklar va davlat institutlari
- b) sanoat va agrar korxonalari, savdo muassasalari
- c) asosiy harbiy va militsiya bo'linmalari va darajalari
- d) foqarolik lavozimlar va kasblar, unvonlar

5. Onomarealiyalar deb ataluvchi leksika

- a) antroponimlar
- b) toponimlar
- c) adabiyot qahramonlarining nomlari
- d) kompaniya, muziye, teatr, restoranlar, magazinlar, sohillar va aeroportlar

nomlari

6. Assotsiativlikni anglatuvchi realiyalar

- a) vegetativ belgilar
- b) hayvonlarni anglatuvchi belgilari (kabure- yovvoi qush,)
- c) ranglarni anglatuvchi belgilar (yashil- umid rangi, kelajak belgisi Pnamada)
- d) folklyor, tarixiy va badiiy alluziyalar. Bu holatda badiiy asar qahramonnig yashash tarzi, o'zini tutushi tarixiy qahramonga solishtirilishi.
- e) til allyuziyasi. Bularga fraziologiya, masal, maqola va iboralar kiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Har bir xalqning o‘z tili, o‘z tarixi bor. Millat rivojlanish davrida uning tilining rivojlanishi ham ichki va tashqi ko‘rinishga qarab o‘zgaradi deb yozadi G.D. Tomaxin [3]. Realiyani tarjimasini qisman katta va muhim muammodir. Tarjima nazariyasining mustaqil fan sifatidagi tushunchasigacha ko‘tarilgan milliy va tarixiy o‘ziga xosliklik tushunchasidir. Quyida keltirilgan adibimizning asari realiyaga boy bo‘lib, afg‘on madaniyatining tarixiy voqeligi, jumladan, urf-odatlar, ijtimoiy tabaqalari, fuqarolik va harbiy martabalarini ko‘rsatadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Tahlil sifatida afg‘on –amerika adibalaridan birining asarini oldik. Adibaning asarida voqelikni ta’sirli tasvirlashda ko‘p gina afg‘on so‘zlariga murojat qilgan. Misol tariqasida Faruka Gavhariyning “*Searching for Saleem: An Afghan Woman’s Odyssey*” (“*Salimni izlab: Afg‘on ayoli Odisseyasi*”) asarida realiyaning klassifikatsiyasini 1-jadvalda keltiramiz [4].

Realiya klassifikatsiyasi	So‘zlar	Jami
Taom realiyasi	Qabili, kabob, bolanies, halva	4
Bayramlar, udumlar va odatlar realiyasi	Surma, haqmeher, henna, isband, tandoore, awaze-e-sarichauk, charpoi, khak	8
Din realiyasi	Azan, jaa-e-namaz, Mazar-i-Sharif, Holy Koran, kafir, Mushkil Gushah	8
Nutq realiyasi	Allah-u-akbar, Ch-u-u-ff, Salaam	3
Ijtimoiy-siyosiy realiya	King Zahir Shah, Jeshn (national independence day), Sultanate of Mohammadzai, Nadir Khan, President Daoud, Politburo, chapaloossan, Taraki, shabnami, Communist parties Khalq and Parcham	11
Murojat, ism realiyasi	Haj, Daoud-e-Dewana, mujaver, Ostad, chaprasi, Baba	6
Harbiy realiya	Qargha Military Base, Khoja Rawash Air Force Base, Military Revolutionary Council, Pul-Charkhi Prison, Agent og KGB	5
Geografik realiya	Qalat, Kabul, Balkh, Kandahar, Waisal Abad	5

Ma'muriy birliklar va davlat institutlari	Itla-at, Balkhi Girl's High School, Kabul University,	3
Pul va ulchov birlik realiyalari	afghanis	1

1-jadvalga kiritilgan misollardan ko'rinib turibdiki, "ijtimoiy-siyosiy" ning realiya kategoriyasi Faruka Gavhariyning "Searching for Saleem: An Afghan Woman's Odyssey" ("Salimni izlab: Afg'on ayoli Odisseyasi") romanida ko'proq uchraydi. Vaholanki, eng kam dominant realiya taom, nutq, pul va o'lchov birligi, murojat, ism va geografikdir. Bu bilan adiba asarida siyosiy hayot asosiy raxsursda berilganini o'quvchiga taqdim etadi. Adiba asarida aks etgan yuqorida keltirilgan realiyalar milliy xususiyatlar yig'indisida milliy afg'on hayotini ko'rsatishga harakat qilgan. Misol uchun taom realiyasi "halva". U faqatgina afg'on oshxonasiga taaluqli ekanligi va milliy bayramlarda maxsus taom sifatida tayyorlanishini aziz mehmonlarga tortiq qilinishi milliy koloritga yaqqol misol bo'la oladi.

XULOSALAR.

Shunday qilib, badiiy matnning realiyasi muayyan til madaniyati haqida sotsial-madaniy, estetik, hissiy va baholash ma'lumotlarini uzatadi. Madaniy va reallik nuqtai nazaridan eng qiziqarlisi inson hayotining intellektual, ma'naviy sohalarini aks ettiruvchi matnlar bo'lib, ular milliy an'analar, urf-odatlar, mentalitet, xarakter va turmush tarzini o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar:

1. Vereshagin E. M., Kostomarov V.G. Yazik i kultura. Tri lingvostranovedcheskie konsepsii taktik i sapientemi. -M., Indrik, 2005. -1040 s.
2. Vinogradov V.S. Vvedenie v perevodovedenie. -M., Izdatelstvo instituta obshego srednego obrazovaniya RAO, 2001. -224 s.
3. Tomaxin G.D. Realii-amerikanizmi. Posobie po stranovedeniyu: Ucheb. Posobie dlya in-tov i fak. inostr. yaz. -M., Vissh. shk., 1988. -239 s.
4. Farooka Gauhari. Searching for Saleem: An Afghan Woman's Odyssey. – Lincoln: University of Nebraska Press, 1996. – 255 P.

